

## TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Muradov Salaxiddin Djumanazarovich**

UNIVERSITI OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

“Aniq fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: [Salohiddin.muradov.78@gmail.ru](mailto:Salohiddin.muradov.78@gmail.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari haqida va pedagogik muammolari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Press-anjuman, raqobatbardosh, Jumboklar bozori, mutaxassis, malaka, yuksak, insoniy, fazilat, kasb, xalq, sodiq, jamiyat, fuqaro, mas’uliyat.

### ABSTRACT

The article discusses the technologies and pedagogical problems of developing students’ technical creativity competence.

**Key words:** Press conference, competitive, puzzle market, expert, qualification, high, human, virtue, profession, people, loyal, society, citizen, responsibility.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются технологии и педагогические проблемы развития технической творческой компетентности студентов.

**Ключевые слова:** Пресс-конференция, конкурентоспособность, Рынок головоломок, специалисты, квалификация, высокий, человечность характер, профессия, народ, бывший, общество, граждан, ответственность.

Hozirgi kunda ijtimoiy-iktisodiy rivojlanish bosqichida jamiyatimiz malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish muammosini qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan oliy ta’lim tizimi oldida jamiyat uchun faqat chuqur bilimli, kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qila oladigan haqiqiy raqobatbardosh, muayyan mutaxassislik malakalarini egallagan shaxslarnigina emas, balki ayni vaqtda davr talablariga javob bera oladigan, yuksak insoniy fazilatlariga hamda chuqur kasb sohibi va uning fidoyisi, xalqiga sodiq, jamiyatda fuqarolik kasb va mas’uliyatini yaxshi anglagan, o‘z vatanining madaniyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini ado etishni talab etadi. Buning uchun: Talabalarning bilish faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan

tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda quyidagi texnologiyalarni jonlantirish ko'zda tutiladi.

**Press-anjuman** - anjumanni o'tkazish uchun siyosiy sharxlovchilar, deputatlar, veteranlar, turli soha mutaxassislari, madaniyat, san'at va sport bo'yicha fidoyi xodimlar taklif etilishi yoki maxsus tayyorgarlik ko'rgan siyosiy sharxlovchilar o'tkazishlari maqsadga muvofiq. Ularga oldindan (yoki uchrashuv vaqtida) talabalarni qiziqtirgan bir necha savollar beriladi. Savollarni maxsus press-guruh a'zolari berishadi, javobni anjumanga taklif etilganlar beradi.

**Fantastik loyihalar tanlovi** - tanlov qatnashchilari rasmlar, chizmalar, sxemalar, diagrammalar, kompyuter grafiklari, slaydlar, videomateriallar yordamida tanlangan mavzu asosida tayyorlangan fantastik loyihalarini taqdimot qiladilar. Taqdimot yakkama-yakka yoki guruh, tartibida o'tkaziladi. Masalan, «Bizning o'quv maskanimiz 2050-yilda», «Quyosh energiyasi insonga», «Planetalararo yo'lovchi kemalar» va h.k.lar loyiha mavzusi bo'lishi mumkin. Loyihalar taqdimoti tugagach, savollarga javoblar beriladi, opponentlarning chiqishlari bo'ladi. Eng yaxshi ilmiy-fantastik loyihalar diplom va mukofotlar bilan taqdirlanadi

**Jumboklar bozori** - ishtirokchilarning qiziqarli jumboqlarni topish va sotib olish musobaqasi. Jumboqni sotib olish uchun yangi bir jumboq aytilishi kerak. Bu bozordagi jumboqlar har xil: rasmi, og'zaki, yozma, predmetli, kompyuterli, ko'rgazmali, ijodiy va xokazo.

**Adabiy karnaval** - turli badiiy adabiyot qaxramonlari kostyumini tayyorlash va himoya qilishga, obrazga kirishga va uni himoya qilishga yo'naltirilgan.

**Dunyoning etti mo'jizasi** - har bir guruh dunyoning etti mo'jizasidan birini olib, materiallar to'playdi. Masalan: "Tojmahal", "Misr piramidalari" va b. bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi. Tayyorgarlikka bir necha kun vaqt beriladi. To'plangan materiallarni guruhlar texnik vositalar yordamida taqdimot qiladilar.

**Ishontirish maktabi** - har bir kichik guruh tanlangan mavzu bo'yicha boshqalarni ishontirish bo'yicha topshiriq oladi. Masalan, "Chekish - umr zavoli", "Yo'l harakati qoidasi - umr foydasi", "Alkogol - bu zahar" va hokazo.

O'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning asosiy yo'llaridan – o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberilizatsiya etishni innovatsion holat deb qaraladi.

Darsni insonparvarlashtirish:

- hamkorlik;
- talabaga g'amxo'rlik;
- e'zozlash;
- kechirimli bo'lish;
- o'zini-o'zi rivojlantirishga muhit yaratish;

- psixologik sogʻlom muhit yaratish;
- ijodiy muhit;
- doʻstona munosabatda ish yuritish;
- talaba extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini ishga solish.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida qoʻllaniladigan pedagogik taʼsir etish usullarini takomillashtirishda quyidagi tadbirlarni jonlantirish koʻzda tutiladi:

**Pedagogik taʼsir usuli** - bu aniq pedagogik holatlarni tashkil qilish usulidan iborat boʻlib, unda maʼlum qonuniyatlar asosida talabalarning ijobiy ishlarida oʻz kamchiliklarini yoʻqotishga undovchi yangi fikrlar va hissiyotlar uygʻonadi.

Pedagogik taʼsirning har bir usuli oʻzining tabiatli xususiyatlariga ega boʻlib, ular ikkita elementning oʻziga xos birligida vujudga keladi, yʼani

- a) yaratilayotgan pedagogik holatlar xususiyatlari;
- b) yangi pedagogik holatga talabalarda tugʻiladigan yangi fikrlar, tarbiyaning yangi sabablari va shaxsiy kamchiliklarini engib oʻtishga asos boʻladigan xissiyotlar mazmuni.

Pedagogik taʼsir usullaridan foydalanish aniq pedagogik tamoyillarga rioya kilishga asoslangan. Bu tamoyillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- pedagogik optimizm;
- talabalarga hurmat;
- talabaning ruxiy holatini tushunish;
- talaba shaxsiy tabiatining tashqi xususiyatlari va sabablarini ochish;
- talabaning taqdiri bilan qiziqish.

**Ishontirish uslubining asosiy shakllari** - tushuntirish, oʻqitirish, gʻoyaviy-siyosiy hamda axloqiy mavzularda suhbatlar, maʼruzalar, munozaralar tashkil etish, uchrashuvlar uyushtirish, badiiy asarlar bilan tanishtirish, televidenie koʻrsatuvlari va teatr spektakllarini koʻrish hamda tahlil qilish va h.k.lardan iborat.

Kompetentli oʻqituvchining maʼnaviy, maʼrifiy, madaniy qiyofasi:

- pokligi, toʻgʻri soʻzligi,
- qatʼiyatligi,
- vijdoniyligi, xalolligi,
- oʻz pozitsiyasini himoya qilaolishi,
- ongli tushunuvchi,
- oʻqimishli, ziyoliligi,
- odamiylik, odamoxunligi,
- raximdillik, mehribonlik,
- samimiyligi, begʻarazligi,
- kamtarlik, kamsuqumlik,
- vijdonli, nomusli,

- oz zo‘zida turuvchi kabi hislatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan asosiy pedagogik talablar o‘qituvchida mujassam bo‘lsa kompetentli o‘qituvchi sifatida talabalarning bilish faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish hamda pedagogik ta’sir ko‘rsatish texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Davletshin M. G. Psixologiya,- Toshkent: O‘qituvchi, 2017.- 41-bet
2. Muslimov N.A. va boshqalar Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya Toshkent, TDPU, 2013.
3. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo‘llanma, Toshkent, TDPU, 2017.